



№4

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR

ILMIY ELEKTRON JURNALI



ISSN: 2181-3965
VOLUME 5
TOSHKENT 2026

“MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

To‘lqin Zakirovich Teshabayev – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI

Mehmonov Sultonali Umaraliyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Karimova Komila Daniyarovna - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sindarov Sherzod Egamberdiyevich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Saparov Aktam Jo‘rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Pardayev Abdunabi Xoliqovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kuziyev Islomjon Ne‘matovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Omonov Akrom Abdinazarovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Qongratbay Avezimbetovich – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Jumayev Nodir Xosiyatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

Haydarov Nizomiddin Hamroyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Raviprakash G. Dani – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

Bagautdinova Nailya Gumerovna – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

Sharifzoda Mu‘min Mashokir – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

Maley Elena Borisovna – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

Asif Mahbub Karim – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





Piter Xayk – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo'yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

Yavuz Demirel – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

Jo'rayev Abdug'affor Safarovich – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ismanov Ibroxim Nabiyeovich – Farg'ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xayriddinov Azamat Botirovich – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Tashnazarov Samiddin Nizamovich – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nurmanov Ulug'bek Anorbayevich - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

Yakubova Nargiz Tursunbayevna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Mamatov Baxadir Safaraliyevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qiyosov Sherzod Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

JURNAL TAHRIRIYATI

Saparov Aktam Jo'rayevich – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aliqulov Mehmonali Salohiddin o'g'li – mas'ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Buxorova Moxira Samandarovna – muharrir

O'zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali

23.11.2022-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№R-566966** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№049864**





MUNDARIJA			
1.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Uzoq muddatli davrda davlat-xususiy sheriklik rivojlanishning muqobil ssenariylari	7
2.	Умарова Зумрад Низомиддин кизи	Консолидациялашган молиявий ҳисоботларни тузиш: таъминотлар, усуллар ва замонавий ёндашувлар	13
3.	Sayipov Begzod Rahimovich	Valyuta kursi va mehnat bozori barqarorligi o'rtasidagi makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashda monetar siyosatning roli	25
4.	Sharipov G'ulomjon Qarshi o'g'li	Qashqadaryo viloyatida yashil iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy holati va rivojlanish istiqbollari	32
5.	Кабилова Шахноза Жураевна	Организационно-управленческий механизм развития сферы услуг в малом бизнесе (на примере Кашкадарьинской области)	38
6.	Xamdamov Sardor Farmon o'g'li	Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va undan milliy amaliyotda foydalanish imkoniyatlari	43
7.	Primkulova Zilola Abrorovna	Xususiy tibbiyot tashkilotlarida xarajatlar buxgalteriya hisobini takomillashtirishning nazariy asoslari	48
8.	Kilichev Alisher Akramovich	Mavsumiy ishlab chiqarishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	52





**DAVLAT XARIDLARINI MOLIYAVIY TARTIBGA SOLISHNING
XORIJIY TAJRIBASI VA UNDAN MILLIY AMALIYOTDA
FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Xamdamov Sardor Farmon o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil izlanuvchisi (DSc),
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*E-mail: sardorxamdamov@gmail.com
[orcid: 0009-0001-5072-7342](https://orcid.org/0009-0001-5072-7342)*

Annotatsiya. Maqolada davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xalqaro-huquqiy asoslari (JSTning Davlat xaridlari to'g'risidagi bitimi, YUNSITRAL namunaviy qonuni, OESR tavsiyalari) va yetakchi mamlakatlar — Yevropa Ittifoqi, AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy hamda MDH davlatlari modellari qiyosiy tahlil qilingan. Har bir modelning moliyaviy jihatlari — markazlashtirish darajasi, elektron platformalar, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va «yashil» xaridlar mexanizmlari ochib berilgan. Xorijiy tajribadan O'zbekiston amaliyotida, xususan sanoat korxonalari xaridlarida foydalanish bo'yicha takliflar asoslangan.

Kalit so'zlar: davlat xaridlari, xorijiy tajriba, JST bitimi, elektron xaridlar, KONEPS, ramkaviy kelishuv, markazlashtirilgan xarid, «yashil» xaridlar, preferensiyalar.

**ОПЫТ ЗАРУБЕЖНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ФИНАНСОВЫХ ЗАКУПОК И
ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ПРИМЕНЕНИЯ В НАЦИОНАЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ**

Хамдамов Сардор Фармон ўғли

*Независимый исследователь (DSc)
Ташкентского государственного
экономического университета,
Доктор философии (PhD) в области экономики*

*E-mail: sardorxamdamov@gmail.com
[orcid: 0009-0001-5072-7342](https://orcid.org/0009-0001-5072-7342)*

Аннотация. В статье представлен сравнительный анализ международно-правовой базы финансового регулирования государственных закупок (Соглашение ВТО о государственных закупках, Типовой закон ЮНСИТРАЛ, Рекомендации ОЭСР) и моделей ведущих стран — Европейского союза, США, Южной Кореи, Китая и стран СНГ. Раскрыты финансовые аспекты каждой модели — степень централизации, электронные платформы, поддержка малого бизнеса и механизмы «зеленых» закупок. Предложены варианты использования зарубежного опыта в практике Узбекистана, в частности, в сфере закупок промышленных предприятий.

Ключевые слова: государственные закупки, зарубежный опыт, Соглашение ВТО, электронные закупки, КОНЭПС, рамочное соглашение, централизованные закупки, «зеленые» закупки, преференции.

**FOREIGN EXPERIENCE OF FINANCIAL REGULATION OF PUBLIC
PROCUREMENT AND POSSIBILITIES OF ITS USE IN NATIONAL PRACTICE**

Xamdamov Sardor Farmon o'g'li

*Independent Researcher (DSc) of
Tashkent State University of Economics,
Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
E-mail: sardorxamdamov@gmail.com*



*orcid: 0009-0001-5072-7342*

Abstract. *The article provides a comparative analysis of the international legal framework for the financial regulation of public procurement (WTO Agreement on Government Procurement, UNCITRAL Model Law, OECD recommendations) and the models of leading countries — the European Union, the USA, South Korea, China and CIS states. The financial aspects of each model are revealed: the degree of centralization, electronic platforms, small business support and green procurement mechanisms. Proposals are substantiated for applying international experience in Uzbekistan, particularly in the procurement of industrial enterprises.*

Key words: *public procurement, international experience, WTO GPA, e-procurement, KONEPS, framework agreement, centralized procurement, green procurement, preferences.*

Kirish

Davlat xaridlari mamlakat iqtisodiyotida davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, raqobat muhitini rivojlantirish hamda byudjet xarajatlarining shaffofligini ta’minlashning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda dunyoning rivojlangan davlatlarida davlat xaridlarini tashkil etish va moliyaviy tartibga solish tizimi zamonaviy raqamli texnologiyalar, ochiq elektron platformalar va risklarni boshqarish mexanizmlari asosida takomillashtirilmoqda. Bunday yondashuv davlat mablag‘laridan oqilona foydalanish, korrupsion xavflarni kamaytirish hamda xarid jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda ham davlat xaridlari tizimini xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va elektron xarid tizimlarini keng joriy etish bo‘yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni milliy amaliyotga moslashtirish hamda davlat mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu bois ushbu tadqiqotda xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi tahlil qilinib, ularni O‘zbekiston amaliyotida qo‘llash imkoniyatlari baholanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solish masalalari iqtisodchi olimlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ilmiy tadqiqotlarda davlat xaridlari byudjet mablag‘laridan samarali foydalanish, xarid jarayonlarining shaffofligini ta’minlash va raqobat muhitini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida baholanadi. Xususan, rivojlangan davlatlar tajribasida elektron davlat xaridlari tizimlari, moliyaviy nazorat mexanizmlari hamda risklarni boshqarish usullarining samaradorligi alohida e’tirof etiladi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda davlat xaridlarini raqamlashtirish, ochiq elektron platformalarni joriy etish va sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish xarid jarayonlarining tezkorligi hamda shaffofligini oshirishi ta’kidlangan. Shuningdek, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishda ichki audit, tashqi nazorat va jamoatchilik monitoringining o‘zaro uyg‘unligi byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlovchi muhim omil sifatida qoraladi.

Mavjud ilmiy ishlarda xorijiy tajribani milliy amaliyotga moslashtirish zarurligi qayd etilgan bo‘lsa-da, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning zamonaviy mexanizmlarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli xorijiy tajribani kompleks tahlil qilish va uning milliy amaliyotga mos jihatlarini aniqlash ushbu tadqiqotning asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro darajada davlat xaridlarining huquqiy-moliyaviy asoslari uchta hujjatda mujassam: JSTning Davlat xaridlari to‘g‘risidagi bitimi (GPA) a’zo mamlakatlar xarid bozorlarini o‘zaro ochish va kamsitmaslik tamoyilini o‘rnatadi [3]; YUNSITRALning Davlat xaridlari to‘g‘risidagi namunaviy qonuni (2011) milliy qonunchilik uchun universal andoza vazifasini bajaradi [4]; OESRning Davlat xaridlari bo‘yicha tavsiyasi (2015) xarid tizimlarini baholashning 12 tamoyilini belgilaydi [5]. Akademik adabiyotda xarid modellarining qiyosiy tahlili N. Dimitri,





G. Piga, J. Spanyolo [6], institutsional jihatlar I.I. Smotriskaya [7] ishlarida yoritilgan. Jahon banki xarid tizimlarini baholashning MAPS metodologiyasini qoʻllaydi [8]. Biroq mazkur manbalarda sanoat korxonalari xaridlarining moliyaviy mexanizmi alohida ajratib tahlil etilmagan, bu esa milliy amaliyotga moslashtirilgan tadqiqotni taqozo etadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solishning xorijiy tajribasi va uni Oʻzbekiston amaliyotiga tatbiq etish imkoniyatlarini baholashda qiyosiy tahlil, tizimli yondashuv, statistik tahlil, ilmiy abstraksiya, umumlashtirish hamda taqqoslash usullaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida rivojlangan davlatlarning davlat xaridlari sohasidagi moliyaviy boshqaruv mexanizmlari, elektron xarid tizimlari va nazorat amaliyoti oʻrganilib, ularning samaradorligi milliy amaliyot bilan solishtirildi. Olingan natijalar asosida Oʻzbekiston davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar

Yetakchi mamlakatlar tajribasining qiyosiy tavsifi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Davlat xaridlarini tartibga solishning milliy modellari qiyosiy tahlili⁷

Mamlakat / tizim	Asosiy tartibga soluvchi hujjat	Elektron platforma	Moliyaviy jihatdan oʻziga xosligi
Yevropa Ittifoqi	2014/24/EU direktivasi	TED (Tenders Electronic Daily)	Xaridlar YAIMning ~14 foizi; ramkaviy kelishuvlar; “yashil” xarid (GPP) mezonlari; chegara qiymatlari tizimi
AQSH	Federal xaridlar qoidalari (FAR)	SAM.gov	Kichik biznes uchun qonuniy kvota (federal shartnomalarning kamida 23%); Buy American tamoyili; GAO nazorati
Janubiy Koreya	Davlat xaridlari xizmati (PPS) toʻgʻrisidagi qonunchilik	KONEPS (2002-y.dan)	Toʻliq raqamlashtirilgan yagona sikl; tranzaksion xarajatlarni yiliga mlrd dollar miqyosida tejash (OESR bahosi); markazlashtirilgan xarid
Xitoy	Davlat xaridlari toʻgʻrisidagi qonun (2002)	CCGP portali	Milliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik; davlat buyurtmasi orqali sanoat siyosatini ragʻbatlantirish
Rossiya	44-FZ “Kontrakt tizimi toʻgʻrisida” (2013)	YEIS (zakupki.gov.ru)	Yagona axborot tizimi; shartnoma ijrosi taʼminoti instituti; milliy rejim
Oʻzbekiston	OʻRQ-684 (2021, yangi tahrir)	Maxsus axborot portali (xarid.uzex.uz)	Elektron auksion va doʻkon ustuvorligi; mahalliy ishlab chiqaruvchilar preferensiyalari; gʻaznachilik nazorati

Qiyosiy tahlil uchta umumjahon tendensiyaning koʻrsatadi. Birinchisi — toʻliq raqamlashtirish: Janubiy Koreyaning KONEPS tizimi rejalashtirishdan toʻlovga boʻlgan butun siklni yagona platformada birlashtirib, xarid jarayonining moliyaviy shaffofligini taʼminlagan va

⁷ Muallif ishlanmasi





xalqaro tashkilotlar tomonidan etalon modeli sifatida e'tirof etilgan [9]. Ikkinchisi — markazlashtirish va ramkaviy kelishuvlar: YEI mamlakatlarida markaziy xarid organlari va ko'p yillik ramkaviy kelishuvlar tranzaksion xarajatlarni va narx tarqoqligini kamaytiradi [10]. Uchinchisi — xaridlarning strategik funksiyasi: AQSHda kichik biznes kvotalari, Xitoyda sanoat siyosati, YEIda “yashil” mezonlar orqali xaridlar milliy iqtisodiy ustuvorliklarga xizmat qildiriladi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribadan quyidagi yo'nalishlarni moslashtirish maqsadga muvofiq: ramkaviy kelishuvlar institutini sanoat korxonalarining takroriy xaridlarida keng qo'llash (narx barqarorligi va ta'minot uzluksizligi uchun); boshlang'ich narxni asoslashda narx monitoringi va elektron katalog ma'lumotlariga tayanish; shartnoma ijrosi ta'minoti vositalarini (bank kafolati, eskrou mexanizmlari) rivojlantirish; xarid mutaxassislarini professionallashtirish (Koreya va YEI tajribasi); hamda “yashil” xarid mezonlarini PF-259-son Farmonda belgilangan yo'nalishlarga muvofiq bosqichma-bosqich joriy etish. Sanoat korxonalari kesimida ayniqsa ramkaviy kelishuvlar va avans-to'lov mexanizmlarini muvozanatlash muhim: uzoq ishlab chiqarish siklida moliyaviy risklarni buyurtmachi va ijrochi o'rtasida oqilona taqsimlash xarid samaradorligining hal qiluvchi shartidir.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, davlat xaridlarini moliyaviy tartibga solish tizimining samaradorligi davlat mablag'laridan oqilona foydalanish, xarid jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda sog'lom raqobat muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy davlatlar tajribasi elektron xarid platformalari, ochiq ma'lumotlar tizimi, risklarni boshqarish, moliyaviy monitoring va kuchli nazorat mexanizmlarini joriy etish byudjet xarajatlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni milliy qonunchilik va iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- davlat xaridlarining barcha bosqichlarini yagona raqamli platforma orqali monitoring qilish mexanizmlarini kengaytirish;
- xarid jarayonlarida moliyaviy risklarni baholash va oldini olishning zamonaviy usullarini joriy etish;
- ochiq ma'lumotlar bazasini rivojlantirish orqali jamoatchilik nazorati va shaffoflikni kuchaytirish;
- xarid ishtirokchilari uchun teng raqobat sharoitlarini yaratish hamda kichik biznes subyektlarining ishtirokini rag'batlantirish;
- davlat xaridlari sohasida mas'ul xodimlarning malakasini muntazam oshirish va xalqaro ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish.

Mazkur takliflarning amalga oshirilishi davlat xaridlarini moliyaviy boshqarish samaradorligini oshirish, byudjet mablag'laridan maqsadli foydalanishni ta'minlash hamda davlat xaridlari tizimining ochiqligi va ishonchliligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to'g'risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2021-yil 22-aprel, O'RQ-684-son // lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2025-yil 26-dekabr, PF-259-son // lex.uz.
3. WTO. Agreement on Government Procurement (revised text, entered into force 6 April 2014). – Geneva: World Trade Organization.
4. UNCITRAL Model Law on Public Procurement. – New York: United Nations, 2011.
5. OECD. Recommendation of the Council on Public Procurement. – Paris: OECD, 2015.





6. Dimitri N., Piga G., Spagnolo G. (eds.). Handbook of Procurement. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 562 p.
7. Smotriskaya I.I. Ekonomika gosudarstvennykh zakupok. – M.: LIBROKOM, 2009. – 232 s.
8. MAPS: Methodology for Assessing Procurement Systems. – World Bank / OECD, 2018.
9. OECD. The Korean Public Procurement Service: Innovating for Effectiveness. OECD Public Governance Reviews. – Paris: OECD Publishing, 2016.
10. Directive 2014/24/EU of the European Parliament and of the Council of 26 February 2014 on public procurement // Official Journal of the European Union. L 94.
11. Федеральный закон от 05.04.2013 г. № 44-ФЗ “О контрактной системе в сфере закупок товаров, работ, услуг для обеспечения государственных и муниципальных нужд”.
12. European Commission. Public Procurement Indicators. – Brussels: DG GROW (turli yillar).

